



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Menejment va marketing
Management and marketing
Менеджмент и маркетинг



BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITNI PROAKTIV XAVF BOSHQARUVI ASOSIDA TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Saitmurotov Saitmurot Masharip o'g'li

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ НА ОСНОВЕ ПРОАКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ

Сайтмуратов Сайтмурат Машиарип угли

IMPROVING THE ORGANIZATION OF INTERNAL AUDIT IN BUDGETARY ORGANIZATIONS BASED ON PROACTIVE RISK MANAGEMENT

Saitmurotov Saitmurot Masharip ugli

Received: June 21, 2026 Revised: June 23, 2026 Accepted: June 25, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston budjet tashkilotlarida ichki audit tizimini an'anaviy (reaktiv) modeldan xavfga asoslangan va proaktiv metodologiyaga o'tkazish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi – xavflarni identifikatsiya qilish, baholash va ustuvorlashtirish mezonlarini takomillashtirish; budjet intizomi buzilishlari hamda moliyaviy xatarlar bo'yicha xavf indikatorlari (KRI) tizimini ishlab chiqish; audit mavzularini tanlashda moliyaviy ahamiyat, ehtimoliy oqibat va nazorat zaifligini integratsiyalashgan tarzda baholash modelini yaratishdan iborat. Tadqiqot COSO, IIA va INTOSAI/ISSAI meyoriy bazasini qiyosiy tahlil qilish, ekspert baholash hamda ko'p mezonli vaznli model qurish usullariga asoslanadi. Natijada uch mezonni birlashtiruvchi integratsiyalashgan xavf indeksi, 5×5 xavf matritsasi, to'rt guruhli KRI boshqaruv paneli va uzluksiz monitoringga asoslangan yopiq proaktiv audit sikli taklif etilgan. Tadqiqot natijalari budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, audit resurslarini eng yuqori xavfli sohalarga yo'naltirish va moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ichki audit, xavfga asoslangan audit, budjet tashkilotlari, xavf indikatorlari (KRI), proaktiv audit, ustuvorlashtirish, moliyaviy nazorat, budjet intizomi.

Abstract. This article examines the transition of the internal audit system in budget organizations of Uzbekistan from a traditional (reactive) model toward a risk-based and proactive methodology. The study aims to refine the criteria for risk identification, assessment, and prioritization; to develop a system of key risk indicators (KRIs) for budget-discipline violations and financial risks; and to design an integrated model that combines financial materiality, probable impact, and control weakness when selecting internal audit topics. The methodology relies on a comparative analysis of the COSO, IIA, and INTOSAI/ISSAI normative frameworks, expert assessment, and the construction of a multi-criteria weighted model. The results propose an integrated risk index uniting the three criteria, a 5×5 risk matrix, a four-cluster KRI dashboard, and a closed-loop proactive audit cycle based on continuous monitoring. The findings contribute to improving the efficiency of budget spending, directing audit resources toward the highest-risk areas, and strengthening financial discipline.

Keywords: internal audit, risk-based audit, budget organizations, key risk indicators (KRI), proactive audit, prioritization, financial control, budget discipline.

■ KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish, budjet shaffofligini oshirish va mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan

biriga aylandi. Bu jarayonda ichki audit muhim institut sifatida shakllanmoqda: vazirliklar va idoralarda ichki audit tuzilmalari tashkil etildi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda metodik ta'minlash mexanizmlari yo'lga qo'yildi. Xususan, "Davlat



moliyaviy boshqaruvini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 11-noyabrda PQ-4887-son qaror budjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatini rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratdi.

Biroq amaldagi ko'plab budjet tashkilotlarida ichki audit asosan an'anaviy – reaktiv yondashuvga asoslanadi. Bunday modelda tekshiruvlar tasdiqlangan reja bo'yicha, ko'pincha o'tgan hisobot davriga oid hujjatlarni (post-faktum) tekshirishga qaratiladi; audit obyektlari ularning xavf darajasidan qat'i nazar nisbatan teng ko'lamda qamrab olinadi. Natijada cheklangan audit resurslari yuqori va past xavfli sohalar o'rtasida samarasiz taqsimlanadi, xato hamda qoidabuzarliklar esa ko'pincha ular sodir bo'lib, moliyaviy zarar yuzaga kelganidan so'ng aniqlanadi.

Xalqaro amaliyotda ichki audit metodologiyasi xavfga asoslangan audit (risk-based internal audit, RBIA) yo'nalishida rivojlanib bormoqda. Ichki auditorlar instituti (IIA) standartlari va INTOSAI/ISSAI hujjatlari audit faoliyatini tashkilotning eng muhim xavflariga qaratishni talab etadi. Bu yondashuvda audit cheklangan resurslarni boshqaruvning xavf ishtahasi (risk appetite) doirasida eng yuqori xavfli jarayonlarga yo'naltiradi va boshqaruvga xavflar samarali boshqarilayotgani yuzasidan ishonch beradi.

So'nggi o'n yillikda raqamli texnologiyalar va ma'lumotlar tahlilining rivojlanishi ichki auditni yangi bosqichga – proaktiv auditga olib chiqdi. Bunda audit faqat sodir bo'lgan hodisalarni baholash bilan cheklanmay, xavf indikatorlari va uzluksiz monitoring orqali muammolarni ular yuzaga kelmasdan oldin aniqlash va oldini olishga intiladi. An'anaviy tanlanma asosidagi, retrospektiv tahlilga tayanuvchi yondashuvlar zamonaviy ma'lumotlarga boy muhitda yetarli emasligi tobora e'tirof etilmoqda.

Shunga qaramay, O'zbekiston budjet tashkilotlari sharoitida xavfga asoslangan metodologiyaning amaliy mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan: xavflarni identifikatsiya qilish, baholash va ustuvorlashtirish mezonlari formallashtirilmagan; budjet intizomi buzilishlari bo'yicha tizimli indikatorlar majmuasi mavjud emas; audit mavzularini tanlash ko'pincha subyektiv mulohaza asosida amalga oshiriladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi – budjet tashkilotlarida ichki auditni xavfga asoslangan metodologiya asosida qayta qurishning yaxlit modelini ishlab chiqishdan iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi: (1) xavflarni identifikatsiya qilish, baholash va ustuvorlashtirish mezonlarini takomillashtirish; (2) budjet intizomi buzilishlari va moliyaviy xatarlar bo'yicha xavf indikatorlari tizimini ishlab chiqish; (3) audit mavzularini tanlashda moliyaviy ahamiyat, ehtimoliy oqibat va nazorat zaifligini integratsiyalashgan baholash modelini yaratish; (4) proaktiv audit tushunchasini ushbu modelga tatbiq etish imkoniyatlarini asoslash. Tadqiqotning ilmiy yangiligi uch mezonni – moliyaviy ahamiyat, ehtimoliy oqibat va nazorat zaifligini – yagona vaznli indeksga birlashtiruvchi ustuvorlashtirish modeli hamda budjet sohasiga moslashtirilgan KRI tizimining taklif etilishidadir.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifat-tahliliy va model qurishga (design science) asoslangan aralash yondashuvdan foydalanadi. Avval mavjud nazariy bilim va meyoriy talablar tahlil qilinib, so'ngra ular asosida amaliy qo'llanishi mumkin bo'lgan baholash modeli va indikatorlar tizimi konstruksiyalashtirildi, keyin esa model illyustrativ misol orqali sinovdan o'tkazildi.

Nazariy va meyoriy asos sifatida COSO "Ichki nazorat – integratsiyalashgan asos" (2013) va COSO ERM (2017) modellari, IIA Global ichki audit standartlari, INTOSAI davlat sektori uchun ichki nazorat standartlari (ISSAI), shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni (O'RQ-677, 2021) va PQ-4887-son qaror qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: meyoriy hujjatlar va xalqaro standartlarning qiyosiy hamda kontent-tahlili; xavf omillarini aniqlash uchun ekspert baholash; ko'p mezonli qaror qabul qilish (MCDA) doirasidagi vaznli additiv model; xavf matritsasini (ehtimol × ta'sir) qurish; KRI indikatorlari va ularning chegaraviy (threshold) qiymatlarini ishlab chiqish.

Integratsiyalashgan xavf indeksi. Audit obyektlarini ustuvorlashtirish uchun integratsiyalashgan xavf indeksi vaznli additiv formula asosida hisoblanadi:

$$R = w_1 \cdot F + w_2 \cdot C + w_3 \cdot W$$

bu yerda: F – moliyaviy ahamiyat; C – ehtimoliy oqibat; W – nazorat zaifligi. Har bir mezon 0–10 ballik shkalada baholanadi. Ekspert baholash natijalari asosida vaznlar quyidagicha qabul qilindi: $w_1 = 0,40$; $w_2 = 0,35$; $w_3 = 0,25$ (yig'indisi 1 ga teng). Moliyaviy ahamiyatga eng katta vazn berilishi budjet mablag'lari hajmi va ahamiyati audit ustuvorligining asosiy omili ekanligini aks ettiradi.

Vaznlarining ushbu nisbati ekspertlar guruhi tomonidan juftlik bo'yicha qiyoslash (AHP yondashuvi elementlari) yordamida aniqlandi va sezuvchanlik tahlili orqali barqarorligi tekshirildi. Model moslashuvchan bo'lib, tashkilotning xususiyatlari va xavf ishtahasiga qarab vaznlar qayta sozlanishi mumkin.

Indikatorlar va validatsiya. Budjet intizomi va moliyaviy xatarlar bo'yicha indikatorlar to'rt funksional guruhga ajratildi: budjet intizomi, davlat xaridlari va shartnomalar, moliyaviy hisobot sifati hamda boshqaruv va nazorat muhiti. Har bir indikator uchun "yashil – sariq – qizil" chegaraviy qiymatlar tizimi belgilandi. Indikatorlar manbalari sifatida g'aznachilik, buxgalteriya hisobi, davlat xaridlari va kadrlar axborot tizimlaridan olinadigan ma'lumotlar ko'zda tutiladi. Taklif etilgan model budjet tashkiloti audit olamidagi (audit universe) oltita tipik obyekt misolida illyustrativ tarzda sinovdan o'tkazildi.


■ TAHLIL VA NATIJALAR

Audit paradigmasining o'zgarishi.

Tadqiqot natijasida an'anaviy reaktiv auditdan xavfga asoslangan va proaktiv auditga o'tishning kontseptual asoslari shakllantirildi (1-rasm). An'anaviy modelda audit resurslari obyektlar o'rtasida teng taqsimlanadi va asosan o'tgan davr hujjatlari tekshiriladi. Xavfga asoslangan modelda esa resurslar eng yuqori xavfli sohalariga yo'naltiriladi, proaktiv modelda esa xavf



indikatorlari real vaqt rejimida muammolardan oldin signal beradi.



1-rasm. Ichki audit paradigmasining o'zgarishi: reaktivdan proaktivga

1-jadval.

Audit yondashuvlarining qiyosiy tahlili


Mezon	An'anaviy (reaktiv) audit	Xavfga asoslangan audit	Proaktiv audit
Asosiy maqsad	Qoidaga muvofiqlikni tekshirish	Yuqori xavfli sohalarga e'tibor qaratish	Xavflarni oldindan aniqlash va oldini olish
Vaqt yo'nalishi	O'tgan davr (post-faktum)	Joriy holat	Kelajakka qaratilgan (oldindan)
Resurs taqsimoti	Obyektlar bo'yicha teng	Xavf darajasiga mutanosib	Indikatorlar signaliga ko'ra dinamik
Ma'lumot bazasi	Tanlanma hujjatlar	Xavf reyestri va baholash	Uzluksiz ma'lumotlar tahlili (KRI)
Buzilishni aniqlash	Sodir bo'lganidan keyin	Davriy baholashda	Real vaqt rejimida, erta signal
Yakuniy natija	Hisobot va jazo choralari	Maqsadli ishonch va tavsiyalar	Profilaktika va xavfni kamaytirish

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, proaktiv audit an'anaviy yondashuvdan tubdan farq qiladi: e'tibor o'tmishdan kelajakka, aniqlash esa hodisadan keyingidan erta signalga ko'chadi.

Xavflarni identifikatsiya qilish, baholash va ustuvorlashtirish mezonlari.

Xavflarni identifikatsiya qilish bosqichida budget tashkilotining audit olami jarayonlar, moliyaviy oqimlar va boshqaruv funksiyalari bo'yicha tuzildi. Har bir xavf

ikki o'lcham – sodir bo'lish ehtimoli va potensial ta'sir kuchi bo'yicha baholanib, 5×5 xavf matritsasiga joylashtiriladi (2-rasm). Matritsada ball (ehtimol × ta'sir) qiymatiga ko'ra xavflar besh darajaga ajratiladi: past (1–4) – monitoring; mo'tadil (5–9) – davriy audit; sezilarli (10–12) – rejaga kiritish; yuqori (13–16) – ustuvor audit; kritik (17–25) – kechiktirib bo'lmaydigan audit.




2-rasm. Xavf matritsasi (ehtimol $\times$ ta'sir) va ustuvorlik darajalari

Bunday matritsa xavflarni baholashda yagona, takrorlanuvchi va shaffof mezonlar to'plamini ta'minlaydi hamda turli auditorlarning baholarini taqqoslash imkonini beradi.

Integratsiyalashgan ustuvorlashtirish modeli.

Audit mavzularini tanlashda faqat ehtimol va ta'sir bilan cheklanmay, moliyaviy ahamiyat, ehtimoliy oqibat va nazorat zaifligi uchta mustaqil mezon sifatida

integratsiyalandi. Oltita tipik audit obyekti ushbu uch mezon bo'yicha baholanib, integratsiyalashgan xavf indeksi hisoblandi (3-rasm). Tahlil natijalariga ko'ra eng yuqori ustuvorlikka ega obyekt – davlat xaridlari (indeks 8,9), undan keyin kapital qo'yilmalar (7,9), maqsadli dasturlar (7,1), smeta ijrosi (7,0), ish haqi va rag'batlantirish (6,5) hamda debitor-kreditor qarzlari (6,0) joylashdi.



3-rasm. Audit obyektlarini uch mezon asosida integratsiyalashgan ustuvorlashtirish modeli

Natijalar shuni ko'rsatadiki, eng katta moliyaviy hajmga, yuqori oqibat ehtimoliga va eng zaif nazoratga ega bo'lgan davlat xaridlari yo'nalishi audit rejasida birinchi o'ringa chiqadi. Uch mezonni birlashtiruvchi


indeks ustuvorlikni faqat bitta omilga (masalan, mablag' hajmiga) bog'lab qo'yishdan kelib chiqadigan xatolikni kamaytiradi.



Budjet intizomi buzilishlari va moliyaviy xatarlar bo'yicha KRI tizimi.

Proaktiv audit uchun budjet intizomi buzilishlari va moliyaviy xatarlar bo'yicha asosiy xavf indikatorlari (Key Risk Indicators, KRI) tizimi ishlab chiqildi.

Indikatorlar to'rt funksional guruhga jamlanib, boshqaruv paneli (dashboard) ko'rinishida taqdim etildi (4-rasm). Bu indikatorlar tashkilotdagi xavf darajasi oshayotganligini erta bosqichda signal qiladi va audit e'tiborini yo'naltirishga xizmat qiladi.



4-rasm. Budjet intizomi buzilishlari va moliyaviy xatarlar bo'yicha KRI tizimi.

Har bir indikator uchun “yashil – sariq – qizil” chegaraviy qiymatlar belgilandi. Indikator qiymatining sariq yoki qizil zonaga o'tishi tegishli jarayonni audit

rejasiga ustuvor ravishda kiritish uchun signal beradi (2-jadval).

2-jadval.

KRI indikatorlarining namunaviy chegaraviy qiymatlari

Xavf indikator (KRI)	Yashil (norma)	Sariq (ogohlantirish)	Qizil (kritik)
Smeta moddasi bo'yicha xarajat og'ishi	$\leq 5\%$	5–15%	$> 15\%$
Bir ishtirokchili xaridlar ulushi	$\leq 10\%$	10–25%	$> 25\%$
Kreditor qarzdorlik o'sish sur'ati (yillik)	$\leq 10\%$	10–30%	$> 30\%$
Yil oxirgi choragidagi xarajat ulushi	$\leq 35\%$	35–50%	$> 50\%$
Aniqlangan kamchiliklar takrorlanishi	0	1–2	≥ 3
Audit tavsiyalari bajarilmaganlik darajasi	$\leq 10\%$	10–30%	$> 30\%$

Keltirilgan chegaraviy qiymatlar namunaviy bo'lib, har bir tashkilotda tarixiy ma'lumotlar va soha o'rtacha ko'rsatkichlari asosida kalibrlanishi lozim.

Yuqoridagi elementlar yagona, uzluksiz takrorlanuvchi siklga birlashtirildi (5-rasm). Sikl xavflarni identifikatsiya qilishdan boshlanib, baholash,

indikatorlar asosida ustuvorlashtirish, xavfga asoslangan yillik rejani tuzish, audit va uzluksiz monitoring hamda tavsiyalar va proaktiv ogohlantirish bosqichlarini qamrab oladi. Sikl yopiq bo'lib, har bir aylanishdan olingan natijalar keyingi davr xavf bahosini yangilab boradi.



5-rasm. Xavfga asoslangan va proaktiv ichki audit sikli

Uzluksiz monitoring bosqichida ma'lumotlar tahlili (data analytics) butun operatsiyalar majmuasini (tanlanma emas) qamrab olib, anomalialarni real vaqt rejimida aniqlash imkonini beradi. Bu esa auditni davriy, retrospektiv funksiyadan uzluksiz, kelajakka qaratilgan funksiyaga aylantiradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy adabiyot va standartlardagi yo'nalishlarni budget sohasi kontekstida konkretlashtiradi. COSO va IIA hujjatlarida ta'kidlanganidek, ichki audit qiymati uning eng muhim xavflarga qaratilishi bilan belgilanadi; taklif etilgan integratsiyalashgan indeks bu prinsipni amaliy, hisoblanadigan ko'rsatkichga aylantiradi. Uch mezonni birlashtirish audit mavzularini tanlashdagi subyektivlikni kamaytiradi va qarorlarning izchilligini oshiradi.

KRI tizimi va uzluksiz monitoring proaktiv auditning tayanchi hisoblanadi. Uzluksiz audit g'oyasi ilmiy adabiyotda uzoq vaqtdan beri rivojlantirilmoqda va davlat sektorida, jumladan xaridlar jarayonida samaradorligi amaliy misollarda ko'rsatilgan. Bashoratli (predictive) tahlil va anomalialarni aniqlash algoritmlari auditorlarga muammolarni ular yuzaga kelmasdan oldin aniqlashga yordam beradi, bu esa reaktiv yondashuvdan proaktiv yondashuvga o'tishning mohiyatidir.

Amaliy nuqtai nazardan, taklif etilgan model budget tashkilotlarida cheklangan audit resurslarini eng yuqori xavfli sohalarga – birinchi navbatda davlat xaridlari va kapital qo'yimalarga – yo'naltirishga imkon beradi. Bu budget intizomini mustahkamlash, maqsadsiz xarajatlar va moliyaviy zararlarni kamaytirish hamda jamoatchilik ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Model, shuningdek, ichki audit tuzilmalarining faoliyat sifatini baholashda ham foydalanilishi mumkin.

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, mezon vaznlari ekspert bahosiga asoslanadi va turli tashkilotlarda farq qilishi mumkin; ikkinchidan, KRI tizimining samaradorligi ma'lumotlarning sifati va

mavjudligiga, g'aznachilik hamda buxgalteriya axborot tizimlari bilan integratsiyaga bog'liq; uchinchidan, proaktiv auditni joriy etish auditorlarning ma'lumotlar tahlili bo'yicha kompetensiyalari va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi yetukligini talab qiladi. Shu sababli model bosqichma-bosqich, dastlab pilot tashkilotlarda joriy etilishi maqsadga muvofiq.

■ XULOSA

Tadqiqotda budget tashkilotlarida ichki auditni xavfga asoslangan metodologiya asosida qayta qurishning yaxlit modeli taklif etildi. Asosiy natijalar quyidagilardan iborat: (1) xavflarni identifikatsiya qilish, baholash va ustuvorlashtirishning formallashtirilgan mezonlari hamda 5×5 xavf matritsasi ishlab chiqildi; (2) budget intizomi buzilishlari va moliyaviy xatarlar bo'yicha to'rt guruhli KRI tizimi va uning chegaraviy qiymatlari taklif etildi; (3) moliyaviy ahamiyat, ehtimoliy oqibat va nazorat zaifligini birlashtiruvchi integratsiyalashgan xavf indeksi yaratildi; (4) ushbu elementlarni proaktiv, uzluksiz monitoringga asoslangan yopiq audit sikliga birlashtirish imkoniyati asoslandi.

Taklif etilgan yondashuv ichki auditni reaktiv, post-faktum funksiyadan proaktiv, profilaktik funksiyaga aylantirishga xizmat qiladi. Amaliyotga joriy etish uchun budget tashkilotlariga xavf reyestrini yuritish, KRI ko'rsatkichlarini muntazam kuzatish, audit yillik rejasini integratsiyalashgan indeks asosida tuzish hamda ma'lumotlar tahlili kompetensiyalarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Kelgusi tadqiqotlarda model real ma'lumotlar asosida empirik tarzda sinab ko'rilishi, mezon vaznlarini aniqlashda ilg'or ko'p mezonli usullar (AHP, TOPSIS) qo'llanilishi va sun'iy intellektga asoslangan bashoratli auditning budget sohasidagi imkoniyatlari o'rganilishi mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrda PQ-4887-son qarori "Davlat moliyaviy boshqaruvini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida" Qonuni (O'RQ-677), 2021-yil 25-fevral. – lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Budjet tashkilotlarida ichki audit bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent, 2021.
4. COSO. Internal Control – Integrated Framework. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission, 2013.
5. COSO. Enterprise Risk Management – Integrating with Strategy and Performance. COSO, 2017.
6. The Institute of Internal Auditors (IIA). Global Internal Audit Standards. Lake Mary, FL: IIA, 2024 (effective January 9, 2025).
7. INTOSAI. Guidelines for Internal Control Standards for the Public Sector (INTOSAI GOV 9100). International Organization of Supreme Audit Institutions, 2004.
8. OECD. Government at a Glance 2023: Internal control and audit in the public sector. Paris: OECD Publishing, 2023.
9. Vasarhelyi M.A., Halper F.B. The Continuous Audit of Online Systems // Auditing: A Journal of Practice & Theory. – 1991. – Vol. 10(1). – P. 110–125.
10. Appelbaum D., Kogan A., Vasarhelyi M.A. Big Data and Analytics in the Modern Audit Engagement: Research Nyeeds // Auditing: A Journal of Practice & Theory. – 2017. – Vol. 36(4). – P. 1–27.
11. Kokina J., Davenport T.H. The Emergence of Artificial Intelligence: How Automation is Changing Auditing // Journal of Emerging Technologies in Accounting. – 2017. – Vol. 14(1). – P. 115–122.
12. Chiu T., Jans M. Process Mining of Event Logs: A Case Study Evaluating Internal Control Effectiveness // Accounting Horizons. – 2019. – Vol. 33(3). – P. 141–156.
13. Eulerich M., Wagener M., Wood D.A. Evidence on Internal Audit Quality from the Transition to Risk-Based Auditing // International Journal of Auditing. – 2022. – Vol. 26(2).
14. Continuous Audit and Monitoring in the Public Sector: A Government Procurement Case // International Journal of Accounting Information Systems. – 2024.
15. Internal Audit of Public Procurement Governance: A Systematic Literature Review // Cogent Business & Management. – 2025. – Vol. 12.
16. Ismailov X. Budjet tashkilotlarida ichki audit tadbirlarini o'tkazish hamda natijalarini rasmiylashtirishni takomillashtirish // Prikladniye nauki v sovremennom mire. – 2025. – №4(13). – B. 4–7.
17. Raxmonov S. Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda ichki auditning o'rni va ahamiyati // Moliyaviy nazorat ilmiy jurnali. – 2022. – №4. – B. 45–51.
18. Karimova D. Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini takomillashtirish yo'nalishlari // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №3. – B. 28–34.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Saitmuratov Saitmurot Masharip o'g'li Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD / Сайтмуратов Сaitмуарат Машарип угли Доцент Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни, PhD / Saitmuratov Saitmurot Masharip ugli Associate Professor of Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, PhD Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: saitmuratovsaitmurot@gmail.com
ORCID: 0009-0008-2048-319X



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz